Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining
2026-yil “ 18 ”-maydagi
31-8/8,01-03/234, 1-8/8, 1-8/8-sonli qo‘shma qaroriga
1-ilova

“Jonajon o‘zbek tilim” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “Jonajon o‘zbek tilim” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma), Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

3. Tanlovni e’lon qilish va o‘tkazishning aniq sanasi, muddati tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha **tashkiliy qo‘mita** tomonidan belgilanadi hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

4. Tanlovni o‘tkazish, uning g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash sarf-xarajatlari Jamg‘arma mablag‘lari, respublika va xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan homiylik hamda xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Tanlovda o‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, davlat tilini Internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirishga munosib hissa qo‘shayotgan fuqarolar ishtirok etishi mumkin.

6. Tanlov 2026-yildan boshlab har yili 21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbirlar doirasida o‘tkaziladi.

2-bob. Tanlovning maqsad va vazifalari

7. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 20-oktabrdagi PQ–308-son qarori ijrosini ta’minlash hamda o‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘- e’tiborini oshirish, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash borasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

8. O‘zbek tilining jamiyatimizdagi nufuzini oshirish, davlat tilini umume’tirof etilgan qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbatan milliy g‘urur hissini tarbiyalash, shuningdek, o‘zbek tilining ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish, uni siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, axborot-kommunikativ, badiiy-ijodiy jabhalarda to‘laqonli joriy etish va faol qo‘llashni ta’minlash hamda xalqaro miqyosida keng targ‘ib etishga qaratilgan namunali ishlarni rag‘batlantirish **tanlovning asosiy vazifalari** hisoblanadi.

3-bob. Tanlovning asosiy yo‘nalishlari

9. Tanlov quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘tkaziladi:

o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, muammo va yechimlari yoritilgan **eng yaxshi ilmiy tadqiqot**;

o‘zbek tilini raqamlashtirishga qaratilgan **eng yaxshi dasturiy mahsulot**;

o‘zbek tilining boy imkoniyatlari tarannum etilgan **eng yaxshi badiiy-ijodiy asar**;

davlat tili bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan **eng yaxshi material**;

o‘zbek tili targ‘ibotiga bag‘ishlangan **eng yaxshi videorolik**;

o‘zbek tilini xalqaro miqyosida ommalashtirishga xizmat qilayotgan **eng yaxshi amaliy ish**;

o‘zbek tilining xorijlik do‘stlari tomonidan yaratilgan **eng yaxshi ilmiy-ijodiy ish**.

Tashkiliy qo‘mita ushbu yo‘nalishlardan tashqari **rag‘batlantiruvchi mukofotlar** ham joriy etishi mumkin.

4-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibi

10. Tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlar o‘zi haqidagi ma’lumotni (ismi, otaismi, familiyasi, ish joyi, o‘qish joyi) ilmiy-ijodiy ishining elektron nusxasini ilova qilgan holda Jamg‘armaga yoki rasmiy elektron pochtaga (uz_tili_jamgarma@umail.uz) hamda (@Jonajontilim_bot) telegram ijtimoiy tarmog‘iga yuboriladi.

11. Tanlovda nomzodlar yakka tartibda yoki jamoa bo‘lib ishtirok etishlari mumkin.

12. Tanlovga taqdim etilmagan, ammo jamoatchilik e’tibori va e’tirofiga sazovor bo‘lgan ilmiy-ijodiy ishlar Tashkiliy qo‘mita tavsiyasiga ko‘ra ko‘rib chiqilishi va baholanishi ham mumkin.

13. Zarurat bo‘lgan taqdirda, tanlov ishtirokchilaridan faoliyatiga oid qo‘shimcha ma’lumotlar ham talab etilishi mumkin.

14. Tanlov e’lon qilingan kundan boshlab, hujjatlar bir oy davomida qabul qilinadi.

5-bob. G‘oliblarni aniqlash va taqdirlash tartibi

15. Tanlovda so‘ngi uch yil davomida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilgan materiallar, ijodiy ishlar, dasturlar, yakka yoki ijodiy jamoa tomonidan tayyorlangan videoroliklar ko‘rib chiqiladi.

16. Tanlov g‘oliblari bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobari miqdoridagi pul mablag‘lari, diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

Tanlovning chet ellik g‘oliblariga pul mukofotlari mukofot jamg‘armasiga teng ekvivalentda xorijiy valyutada ham to‘lanishi mumkin.

Tanlov g‘oliblari uchun hisoblangan pul mukofotlari g‘olibning (jamoaviy g‘oliblarniki a’zolar o‘rtasida teng taqsimot asosida) bank hisob raqami (yoki plastik kartasi)ga o‘tkazib beriladi.

17. G‘olib bo‘lgan ishtirokchilar keyingi uch yilda tanlovda ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

18. Tanlov g‘oliblariga mukofotlar **21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni** arafasida tashkil etiladigan tadbirlar doirasida tantanali ravishda topshiriladi.

6-bob. Tanlov tashkiliy qo‘mitasi

19. Tashkiliy qo‘mita Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Tashqi ishlar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar vakillari, taniqli olimlar va soha mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

20. Quyidagilar Tashkiliy qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq jarayonlarni muvofiqlashtirish;

tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori darajada o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

tanlovni e’lon qilish va tanlov targ‘ibotiga oid materiallarni tayyorlash bilan bog‘liq ishlarni tashkil etadi;

tanlovga kelib tushgan ishlarni ko‘rib chiqish, g‘oliblarni adolat, xolislik va ochiqlik tamoyillari asosida aniqlash maqsadida malakali mutaxassislardan iborat tarkibda hakamlar hay’atini shakllantirish;

baholash mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

tanlovning taqdirlash marosimini OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritilishini ta’minlash choralarini ko‘rish;

tanlovni tashkil etishga doir dolzarb masalalarni tezkor hal etish choralarini ko‘rish.

Tashkiliy qo‘mita tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

21. Tashkiliy qo‘mita zaruratga ko‘ra mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqiga ega.

22. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning ishchi organi hisoblanadi.

Ishchi organ:

tanlov qatnashchilarining hujjatlari va ilmiy-ijodiy ishlarini qabul qiladi hamda hakamlar hay’atiga taqdim etadi;

tashkiliy qo‘mitaning takliflarini hisobga olgan holda tanlovning xarajatlar smetasini ishlab chiqadi;

tasdiqlangan smeta asosida tanlov g‘oliblarini taqdirlash va tantanali marosimni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha sarf-xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtiradi;

tanlov g‘oliblari uchun diplom hamda esdalik sovg‘alar tayyorlaydi.

23. Tanlov ishtirokchilarining ilmiy-ijodiy ishlari taniqli olimlar, yozuvchi va shoirlar, soha mutaxassislari, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat hakamlar hay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi va baholanadi.

24. Tashkiliy qo‘mita hamda hakamlar hay’ati a’zolari o‘z ilmiy-ijodiy ishlarini tanlovga taqdim etgan yilda qo‘mita va hay’at tarkibidagi faoliyatini to‘xtatib turadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Ushbu Nizomni qo‘llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Nizom talablari asosida g‘oliblarga berilgan yutuqlar qiymati amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini solish obyekti hisoblanadi.

27. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.